

Auditorlik Tekshiruvini Rejalashtirishning Afzalligi

*Rayimqulova Muxlisa Oybek qizi*¹

Annotatsiya: *Avvalo biror ish boshlashdan oldin puxta o'ylangan reja bilan boshlasak u ishimiz samarali bo'lishi mumkin. Misol qilib oladigan bo'lsak, tadbirkor ham o'z biznesini boshlashdan oldin albatda unga reja tuzib oladi. Shu qatorida auditorlik tashkilotlari ham biror bir firma tekshirishdan oldin auditorlik tashkiloti rahbari reja tuzib chiqadi va o'sha rejaga asosan korxonada yoki tashkilotlar tekshiriladi. Ushbu maqolada auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirishni yoritildi.*

Kalit so'zlar: *Auditni rejalashtirish tamoyillari, auditni dastlabki rejalashtirish, auditning umumiy rejasini tuzish, auditorlik guruhini shakllantirish, audit dasturi, audit amallari, tekshiruvda risk va muhimlikni qo'llash tartibi, audit nazoratining bosqichlari, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun.*

Auditor korxonada, tashkilot, xo'jalik yurituvchi subyekt olib borayotgan, yuritayotgan faoliyatini tekshirishda albatta auditor xolis va isbotlangan xulosa berishi uchun auditorga puxta ishlangan samarali rejasini bo'lishi zarur. Auditor rejasining mazmuni auditor o'z oldiga qo'ygan maqsad va shu maqsadni bajarish uchun belgilanib qo'yilgan aniq vazifalardan kelib chiqadi. Umuman olganda Auditorning maqsadini oddiy qilib aytadigan bo'lsak korxonada yoki tashkilot faoliyatini moliyaviy hisobotini tahlil qilish, yillik moliyaviy hisobotlarini xaqqoniyligini aniq dalillarga asosa aniqlash, va tasdiqlash valyuta muomalalarini taftish qilish, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospektining ma'lumotlarini tasdiqlash, korxonaning moliyaviy barqarorligini mustaxkamlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, iqtisodiyot va moliyaviy huquq sohasidagi yangi qonunchilik hujjatlari bo'yicha aniq maslahat (konsultatsiya) o'tkazish va xokazo.

Auditorlik tashkiloti biror bir korxonani tekshirib baholaydi va u haqida yakuniy hulosani albatda o'zining tamoyillariga asosan ya'ni xolis, mustaqil baholaydi. Auditor har qanday tashkiloti tekshirishda o'sha tekshirayotgan tashkilotni biznesni bilishi kerak, buning uchun unga moliyaviy hisobotlarda yoki auditorlik hisobotida sezilarli samaraga ega bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarni, operatsiyalarni va metodlarni identifikatsiyasiyalash va tushunishga imkon berish etarli. Auditorlar tekshirayotgan tashkilot Yoki korxonani, ularning ofislariga borib, yillik hisobotlarini ko'rib, korxonaning boshqaruvi va shtati bilan muhokama (muzokara)larga kirishib va odatda, internet orqali jamoatchilik yangiliklari va jamoatchilik axborotlari ma'lumotlariga kirib imkoniyatlarini olib, ular bilan oldindan tanishishi mumkin. Agar tashkilot o'zi bilgan tashkilot ya'ni eski bo'lsa avvalgi yillarning ishga oid xujjatlari ko'rib chiqilishi kerak.

Agar auditor tekshirayotgan korxonada yangi bo'lsa auditor avvalgi auditor bilan maslahatlashish va oldindan axborot qidiruvini kengaytirish lozim. Auditorlar tekshirishdan oldin tekshirayotgan korxonalar haqidagi o'z axborotlarni 3 ta asosiy manbadan oladilar:

¹Jizzax politexnika instituti talabasi
rahimqulovamuxlisa@gmail.com



1. Ularning mijozlar bilan tajribalari umum olish mumkin bo'lgan axborotlar;
2. Mijozning o'zidan mustaqil ravishda axborotlarni baholash uchun foydalaniladigan metodlar;
3. Jamoatchilik ma'lumotlari bazasining qidirishdan variatsiyalanadi;

Auditor tekshiratotgan korxonasini boshqaruv nazoratini bilishi juda muhim. Boshqaruv nazoratini bilishi uchun auditor quyidagilarni bilib olishi kerak:

- Mijozning boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarida va operatsiyalaridagi o'zgarishlar;
- Bazaning mijozga ta'sir qiluvchi ijtimoiy texnik va iqtisodiy omillarining joriy rivojlanishi;
- Joriy yoki kelgusidagi moliyaviy qiynchiliklar yoki xisob muomalalari;
- Korxonada moliyaviy xisobotlarini xato yoki firibgarlik oqibatidagi moddiy jihatdan noto'g'ri yozishma (ariza) larga tasirchanligi;
- Bog'liq tomonlarning mavjudligi;
- Yangi yoki yopiq ko'chmas mulk va ishlab chiqarish korxonalarini vositalari;
- Texnologiyadagi mahsulotlar yoki ishlab chiqarish xizmatlari yoki taqsimlash kabi yaqindagi yoki osilib qolgan o'zgarishlar;
- Buxgalteriya tizimi va ichki boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar;
- Mijozni yangi tekshirish.

Agar auditor yangi korxonada tekshirish arafasida bo'lsa auditorlik firmasi o'sha korxonada maqbulligini aniqlash uchun to'liq tekshirish ko'radi va agar auditor mustaqillikning etika talablarini, ma'lum vakolatlikni qondira olsa ishni qabul qiladi. Bazida auditor boshqaruvining obro'si va asosiy a'zolari haqida axborotlar olish uchun professional auditorlarni yollashi yoki unda ish sud – buxgalteriya ekspertizasi bo'limidan foydalanishi mumkin. Agar avvalgi auditor bo'lmasa, yanada kengroq tekshiruvlar o'tkazilishi mumkin.

Ko'pgina auditorlik firmalari mavjud korxonalarni har yili baholaydilar. Yuqorida muhokama qilingan tekshirishga qo'shimcha ravishda auditor, auditning hajmi, fikrlar va yig'implar turlari auditorlik firmasi va mijoz hamda boshqaruv yaxlitligi orasidagi sudlarni ko'rib chiqishdagi og'irliklar kabi har qanday avvalgi nizolarni ko'rib chiqadi. Ushbu to'rt omil munosabatlar davom etish etmasligiga kuchli ta'sir etadi. Majburiyatlarni davom ettirish uchun auditor oldingi yillar tekshiruv ishlari natijalari doir xujjatlaridan yig'ilagan axborotlarni yangilagan va qayta baholagan bo'lar edi. Auditor shuningdek, oxirgi auditdan buyon yuz bergan jiddiy o'zgarishlarni idensifikatsiyalashtirish bir xil o'xshash uchun ishlab chiqilgan protseduralarini ham bajarishi lozim. Auditorlik faoliyatida rejaning to'g'ri tuzilishi uni samarali tashkil etilishi bilan izohlanadi. Shu singari, auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish jarayoni ham "Auditni rejalashtirish" deb nomlangan 3-sonli auditorlik faoliyatining milliy standarti asosida tartibga solinadi. Shuningdek, auditorlik tekshiruvlari kam vaqt talab qilishi va iqtisodiy tejamkor bo'lishida rejaning optimal tuzilishi talab etiladi. Buning uchun esa, auditni rejalashtirishning maqsadi, uning bosqichlarini to'liq o'rganish, undagi muammolarga xolisona baho berish, ularni bartaraf etish asosida rejalashtirish jarayonini takomillashtirish zarur. Bu borada uning huquqiy zaminini mustahkamlash talab etiladi. Biroq, ta'kidlash joizki, auditorlik xizmatining ish sifati uni to'g'ri rejalashtirishga bevosita bog'liqdir. "Auditni rejalashtirish" nomli AFMS asosida amalga oshirilishi majburiy etib belgilangan bo'lsada, biroq, amaliyotda esa auditorlik tashkilotlari tomonidan mazkur standart talablari yoki unda belgilangan tartib-qoidalarga tekshiruvlar jarayonida to'liq amal qilinmayapti yoki har bir tekshiruvning umumiy rejasi va dasturi turlicha yondashuvlar asosidagi mazmun va shakllarda tayyorlanib kelinmoqda. oshirilishiga olib keladi.



Auditorlik nazoratining bosqichlari O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq auditorlik faoliyatining milliy standartlarida belgilangan majburiy talablarga asosan o'tkazilishi belgilangan. Jumladan, auditni rejalashtirish bosqichi O'zbekiston Respublikasi 1999 yil 10 noyabrda Adliya Vazirligi tomonidan 837-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan 3-sonli auditorlik faoliyatining milliy standarti(keyingi o'rinlarda AFMS) hamda «Auditni rejalashtirish» nomli 300-sonli xalqaro audit standartiga muvofiq amalga oshiriladi. «Auditni rejalashtirish» nomli XASga muvofiq rejalashtirish auditorlik tekshiruvini o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanib, auditorlar reja tuzilgunga qadar bevosita tekshiruv jarayonini boshlamasliklari va auditorlik tekshiruvining barcha bosqichlarida umumiy reja hamda dasturda keltirilgan vazifalarni qat'iy tartibda amalga oshirishlari lozim.

Standartga muvofiq, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

1. Auditni dastlabki rejalashtirish;
2. Auditning umumiy rejasini tayyorlash;
3. Audit dasturini tayyorlash.

Qonunchilikda belgilangan tartibga ko'ra, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonida auditorlik tashkiloti tomonidan qo'llaniladigan me'yorlar XAS asosida amalga oshirilishi majburiy etib belgilangan bo'lsada, biroq, amaliyotda auditorlik tashkilotlari tomonidan mazkur standart talablari yoki unda belgilangan tartib-qoidalarga tekshiruvlar jarayonida to'liq amal qilinmayapti yoki har bir tekshiruvning umumiy rejasini va dasturi turlicha yondashuvlar asosida tayyorlanib kelinmoqda. auditorlar tomonidan mazkur standartga muvofiq auditorlik tekshiruvining rejalashtirilishi natijasida, ular tomonidan tekshiruvlarni oldindan puxta belgilangan ketma-ketlik asosida o'tkazilishi(tartibli)ga, tekshiruvni auditorlik shartnomasida belgilangan muddatda yakunlanishi, auditorlar tomonidan yo'l qo'yiladigan xato yoki kamchiliklarni kamayishiga va tekshiruv jarayonini tartibli ravishda amalga oshirilishi ta'minlanadi.Rejalashtirish auditorlik guruhi rahbari tomonidan audit o'tkazishning umumiy tamoyillari kabi, xususiy tamoyillariga ham muvofiq amalga oshirilishi lozim. Ular:

- uyg'unlik (komplekslik);
- uzluksizlik;
- maqbullik.

Uyg'unlik tamoyili auditning dastlabki rejasini tuzishdan tortib, to umumiy rejasini va dasturini tuzgunga qadar bo'lgan barcha bosqichlarning o'zaro bog'liqligi va muvofiqligini ta'minlashni nazarda tutadi.

Rejalashtirishning uzluksizlik tamoyili tekshiruvda ishtirok etadigan auditorlarga kelishilgan topshiriklar belgilanishi va rejalashtirish bosqichlarining muddatlar hamda tarkibiy bo'linmalar bo'yicha bog'liqligida ifodalanadi.

Auditni rejalashtirishning maqbullik tamoyili shundan iboratki, rejalashtirish chog'ida auditorlik tashkiloti o'zi belgilagan mezonlar asosida auditning umumiy rejasini va dasturidan maqbulini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Auditorlik tekshiruv uzoq vaqt davom etganida, auditor mijozning moliya - xo'jalik faoliyatidagi va qonunchilikdagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda reja va dasturga zarur tuzatishlar kiritishi mumkin.

Auditor uchun dastlabki rejalashtirish jarayonida quyidagilar xo'jalik yurituvchi sub'ekt to'g'risida axborot olish manbalari bo'lib hisoblanadi:



- Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ustavi;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektni ro'yxatga olish to'g'risidagi hujjatlar;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosatini va unga o'zgartirishlar kiritishni tartibga soluvchi hujjatlar;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektni ro'yxatga olish to'g'risidagi hujjatlar;
- Kuzatuv va (yoki) ijroiya organlari aktsiyadorlar yig'ilishlarining yoxud xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqa shu singari boshqaruv organlari majlislari bayonnomalari;
- Buxgalteriya hisobotlari;
- Statistika hisobotlari;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning shartnomalari va bitimlari;
- Auditor maslahatchilarining ichki hisobotlari;
- Korxonaning filiallari va shu'ba jamiyatlari ro'yxati;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilishlarini tartibga soladigan hujjatlar, uning filiallari va shu'ba jamiyatlari ro'yxati";
- Auditorlik tashkiloti mutaxassislari malaka darajasi bo'yicha ma'lumotlar (Auditorlik tekshiruvi buyurtmachisi faoliyat sohasini tushunadigan mutaxassislar etarililigini baholash va ekspert xizmatiga bo'lgan ehtiyojni aniqlash maqsadida).

Auditor korxonaga bilan shartnoma qilgandan so'ng albatda auditor tashkiloti rahbari tomonidan reja tuzib olishi va uni taqdim qilishi zarur. Tuzilgan umumiy reja audit dasturini amalga oshirishning asosiy manbasi yoki dasturning uslubiy hamda me'yoriy asosi bo'lib xizmat qilishi kerak. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida umumiy rejaning ayrim qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zaruriyati paydo bo'lishi mumkin, bunday vaqtda kiritiladigan o'zgartirishlar mazmuni va sabablari rejada batafsil bayon etilishi kerak. Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki albatda har bir ishni qilishdan oldin uning rejasini tuzib olsak o'sha qilgan ishimiz ham samarali yakunlanadi. Auditorlik tekshiruvida ham huddi shunday korxonaga tekshirishda auditor aniq bir reja asosida amalga oshirsa tekshiruvni va auditorlik prinsplaridan kelib chiqaman holda auditorlik xalqaro standartlariga amal qilgan holda xulosa bersa bu tekshiruv maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Туйчиев А., Кузиев И., Авлокулов А., Шеримбетов И., Авазов И. Аудит. Дарслик-Т.: "Iqtisod-Moliya", 2019 й. – 530 б.
2. Кузиев И., Туйчиев А., Хожиев М., Якубов М. Внутренний аудит. "IQTISOD-MOLIYA", 2019 г. – 421 стр."
3. Хамдамов Б., Илхомов Ш., Каримов Н., Машарипов О., Хожиев М. Амалий аудит. Дарслик-Т.: "Iqtisod-Moliya", 2021й. – 360 б.
4. Хамдамов Б.К. Аудит халқаро стандартлари: Дарслик -Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2020 й. – 290 б.
5. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2021 yil 25 fevral. O'RQ-677-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi qarori. «Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5210-son Qarori. <http://lex.uz>



7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi qarori «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4611 son Qarori. <http://lex.uz>
8. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
9. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, 3(12), 1013-1022.
10. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(10), 640-645.
11. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(8), 37-40.
12. Turumova, D. A., & o‘g‘li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 234-240.
13. Turumova, D. A. (2023). O ‘ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.
14. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(14), 60-62.
15. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 290-294.
16. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(22), 243-248.
17. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 6-9.
18. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 15-18.
19. Abdumannonovna, T. D., & Abdurasul, A. D. (2024). FORMATION OF STATE FINANCE AND AUDIT ACTIVITY IN THE EARLY PERIODS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 34-37.
20. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 57-60.
21. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 136-140.



22. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK DALILLARINING AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA DOLZARBLIGI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 469-473).
23. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHNING AFZALLIGI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 474-478).
24. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA EKSPERT ISHLARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 483-487).
25. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK XULOSASIDA ASOS BOLUVCHI MALUMOTLAR-AUDITORLIK DALILLARI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 494-498).
26. Abdumannonovna, T. D. (2024). THE AUDITOR'S PROFESSIONAL ETHICS ARE THE BASIS OF THE AUDITOR'S ACTIVITY. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 225-229.
27. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDITOR ISHI SIFATINI NAZORAT QILISHDA AUDITORLIK STANDARTLARINING UYG'UNLIGI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 4(37), 265-270.
28. Abdumannonovna, T. D., & Habibullo G'anijon o'g, A. (2024). The Role of International Audit Organizations in the Transition to International Standards in Uzbekistan. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 1-6.
29. Abdumannonovna, T. D. (2024). An Understanding of the Auditor's Professional Ethics and its Importance in the Auditor's Work. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 7-11.
30. Yahyoyevna, O. F., & Alexandrovich, A. A. (2024). THE ROLE OF FINANCIAL MANAGEMENT IN IMPROVING THE FINANCIAL CONDITION OF ENTERPRISES. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 44-47.
31. Odilovna, U. Z., & Alexandrovich, A. A. (2024). ECONOMIC AND LEGISLATIVE CORNERSTONES OF INVESTMENT POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 87-90.

